

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SHAXSGA YO'NALTRILGAN TA'LIM ASOSIDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.

Daminova Muxabbat Kurbanmuratovna

Termiz tuman 10-umumta'lismaktabi

boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi

E-mail: daminovamuxabbat@gmail.com

tel: 998 93 791 27 89

Qulmo'minov O'rolboy Safar o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti

"Boshlang'ich ta'lism metodikasi" kafedrasiga o'qituvchisi,

Termiz (O'zbekiston)

E-mail: qulmuminovorolboy@gmail.com

Tel.: +998995265624

Annotatsiya: Mazkur maqolada mualliflar tomonidan boshlang'ich sinfda shaxsga yo'naltirilgan ta'lism texnologiyalaridan foydalanish mazmuni va yo'llari muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: Shaxs, ta'lism, texnologiya, metod, metodika, tafakkur, ijodkorlik, erkinlik.

Annotation: In this article, the authors discussed the content and ways of using individual-oriented educational technologies in primary school.

Keywords: Person, education, technology, method, methodology, thinking, creativity, freedom.

Ta'larning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani ta'lism muassasalarida ta'lism sifatining oshishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, har qanday texnologiya ta'larning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lism tamoyillariga asoslanadi. Ta'lism jarayonining faol sub'ektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatları shundan iboratki, ma'lum mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beradi.

Bugungi ta'larning rivoji o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodkor bo'lishi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirib borishini taqozo etmoqda. Shunday ekan, ta'lism jarayonida yoshlardan yoshlar ta'lism-tarbiyasi bilan

shug'ullanuvchi har bir murabbiy o'quvchilarni barkamol inson qilib yetishtirish uchun ularning xalq insonparvarligi chashmalaridan, umumbashariy qadriyatlardan bahramand bo'lislariiga e'tibor berib, urf-odatlarimizni, milliy qadriyatlarimizni, buyuk mutafakkir-larimizning ma'naviy merosini yaxshi bilishi va ularni darslarga tadbiq etishi lozim.

Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish ta'lim – tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki uni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday texnologiya kutilgan samarani bermaydi. Bu kundagi o'qituvchi tayyor elektron resurslar yordamida dars o'tish bilan chegaralanmasdan balki, ta'limiy resurslarni yaratish hamda uni amalda qo'llovchi o'qitishning zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini o'quvchilarga yetkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi lozim.

Pedagogik texnologiyani har tomonlama puxta o'ylangan pedagogik loyihalashtirish, ta'lim jarayonini tashkil qilish va albatta o'quvchi va pedagog uchun erkin, qulay shart-sharoit yaratish orqali xamjihatlikda ishlab chiqilgan model desak bo'ladi.

Ta'lim jarayonida shaxsga murojaat qilmaslikning iloji yo'q. Shaxs bu jarayonda qanday vazifani bajarishi kerak - maqsad vazifasinimi yoki unga erishish uchun vosita vazifasinimi?

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi - bola shaxsini butun bir ta'lim tizimining markaziga qo'yadi va unga tabiatan berilgan o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun har tomonlama qulay, xavfsiz, erkin shart-sharoit yaratadi. O'quvchi shaxsi bu texnologiyada nafaqat sub'ekt balki keng imkon berilgan sub'ekt bo'lib u ta'lim tizimidagi asosiy bo'limgan maqsadlarga erishish vositasi emas, balki uning asosiy maqsadi hisoblanadi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining yana bir muhim tarafi ta'lim jarayonidagi bolaning o'rni va unga kattalarning munosabatidir.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishda o'quvchi shaxsining individual hamda yosh xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiyalarning asosiyalaridan biri – bu shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidir.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim bu - tabiiy tizim hisoblanib, o'quvchining noyob shaxsiy rivojlanishi, uning o'ziga hos qobiliyatlarini va psixologik yo'nalishlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi insoniylik falsafasi, psixologiyasi va pedagogikasining uyg'unligini namoyish etadi. Pedagogning diqqat markazida o'zining maksimal imkoniyatlarini ishga solib bilim olishga intilayotgan, yangi tajriba-sinovlarni qabul qila oladigan va hayotning har xil holatlarida mustaqil, ongli va mas'uliyat bilan qaror qabul qilishga qodir bo'lган butun bir noyob bolaning shaxsi turmog'i lozim. O'quvchiga ijtimoiy normalar asosida bilim beruvchi an'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli o'laroq shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasida yuqorida qayd qilingan yo'nalish (sifat)larni shaxs tomonidan zabit etilishi tarbiyaning asosiy maqsadi qilib qo'yiladi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi.

Bunda o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirmay, balki o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o'z amaliy faoliyatida sinab ko'rish, yangi g'oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo'llarini qidirish uchun erkinlik berish, o'quvchining ijodi, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Har qanday o'quvchi o'ziga xos takrorlanmas tabiat, xarakter xususiyatini faollashtirishga, namoyish qilishga intiladi.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar (muammoli-izlanish, tadqiqot, dialog, evristik suhbat, munozara, guruhlarda ishlash) dan foydalanib, shunday shart-sharoitlarni tarkib toptirishi lozimki, natijada o'quvchi uchun dastlab neytral bo'lган ob'ekt kutilmaganda sub'ektiv hususiyat kasb etsin.

Buning uchun o'quv materiallari mazmuni o'qituvchi tomonida o'quvchini qiziqtiradigan, uning shaxsiy tajribasiga mos keladigan, fikrlashga undaydigan, ijodi yondoshgan holda qayta ishlanadi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quv jarayonini loyihalashning o'ziga hos tomonlarini hisobga olishni, ya'ni o'quvchi shaxsi modeliga avvaldan belgilab

qo'yilgan talablardan yiroq bo'lishni taqozo etadi. Ijtimoiy o'sish jarayonlarining shaxsga bo'lgan ta'sirini xisobga olgan holda talim jarayonida har bir o'quvchi o'zini yoshlik davri nashidasini sezishi, balog'at davrida erkin, mustaqil, ijodkor va har tomonlama barkamol inson bo'lib o'sishini hisobga olish zarur omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Апробация, (2), 93-94.
2. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).
3. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 792-797.
3. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1781-1785.
4. Мухтарова, Л. А. (2018). Пути Использования Возможностей Мультимедиа В Повышении Качества И Эффективности Уроков Чтения В Начальных Классах. Научные горизонты, (11-1), 247-252.
5. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классах. Гуманитарный трактат, (24), 13-14.
6. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. Гуманитарный трактат, (24), 9-10.
7. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Open Access Repository, 4(02), 81-84.
8. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION Open Access Repository, 4(02), 434-437

9. Orolboy KULMOMINOV. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 54-56
10. Lobar Mukhtarova, & Shahnoza Isakova. (2023). METHODOLOGY OF SPEECH DEVELOPMENT OF VISUALLY IMPAIRED STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 360–371. Retrieved from
11. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, & Saidakhmatova Nafisa Soatmurod kizi. (2023). DEVELOPMENT OF READING UNDERSTANDING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Academia Science Repository*, 4(04), 18–22. Retrieved from
12. Nafisa Saidakhmatova, & Lobar Mukhtarova. (2023). THE SIGNIFICANCE OF AARTWORK IN THE FORMATION OF LEARNING SKILLS. *Academia Science Repository*, 4(04), 176–180. Retrieved from
13. Pardayeva Gulbahor Jalgashevna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM TECHNOLOGY. *World Bulletin of Social Sciences*, 21, 109-111. Retrieved from
14. Feruza RAKHMONOVA, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF FORMING A CULTURE OF READING IN PRIMARY EDUCATION. *European Scholar Journal*, 4(3), 5-7. Retrieved from
15. Saodat MINGNOROVA, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). THE METHODOLOGY OF DEVELOPING THE CREATIVITY OF THE BEGINNING 1ST CLASS TEACHER WITH THE HELP OF ETHNOPEDAGOGY. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 33-37. Retrieved from
16. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF FORMING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS OF PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Open Access Repository*, 4(3), 971–976.
17. Orolboy Kulmominov (2023).TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. *Open Access Repository*, 9/10, 112-116.
- Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>

Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>

Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 13-17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>